

## EKOLOGIK XAVFSIZLIKNING HUQUQIY-TA'LIMiy ASOSLARI VA BARQAROR RIVOJLANISH

**M.B. Shokirova**

“Gidrologiya va ekologiya” kafedrası stajor-o‘qituvchisi,  
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”  
milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti.

E-mail: [manzura.shokirova.997@gmail.com](mailto:manzura.shokirova.997@gmail.com)

**Sulaymonova Mastura**

5630101-Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (suv xo‘jaligi) talaba,  
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”  
milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kundagi global ekologik o‘zgarishlar va ularning zararli oqibatlari, inson xavfsizligini ta‘minlash uchun qilingan va qilinayotgan chora-tadbirlar haqida fikr yuritilgan. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi vazifalaridan kelib chiqib shuni alohida ta‘kidlash joizki, ekologik ta‘limning mohiyatini anglab olgan har bir fuqaro atrof-muhitga bo‘lgan e‘tiborini kuchaytiradi. Shu o‘rinda hozirgi avlodda ekologik ta‘lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish davr talabi hisoblanishiga e‘tiborni qaratish o‘rinli bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, ekologik ta‘lim, xalqaro sammit, ekologik madaniyat

## SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND LEGAL-EDUCATIONAL BASIS OF ENVIRONMENTAL SECURITY

### ABSTRACT

This article reflects on today’s global environmental changes and their harmful consequences, measures taken and being taken to ensure human safety. Based on the tasks of the concept of sustainable development, it is worth noting that every citizen who understands the nature of environmental education will increase his attention to the environment. At this point, it is appropriate to draw attention to the need of the times to establish and develop environmental education in the current generation.

**Key words:** sustainable development, ecological safety, ecological education, international summit, ecological culture

## KIRISH (INTRODUCTION)

Bugungi kunda globallasuv jarayoni yer sharining barcha hududlariga o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi natijasida ekotizimlarning buzilishi, bioxilma-xillikning kamayishi, atrof tabiiy muhit sifatining yomonlashuvi sodir bo'lmoqda. Dunyo hamjamiyati shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi oldida turgan muhim muammolardan biri global miqyosdagi inson xavfsizligini, xususan, uning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan ekologik xavfsizlikni va barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasida barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida olib borilgan ishlar mustaqillik yillarida, asosan 1992 yil 2 martda davlatimiz BMTga to'laqonli a'zo bo'lganidan so'ng yaqqol namoyon bo'la boshladi. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlarda O'zbekistonning ishtiroki avvalo 15 dan ortiq konvensiyalarning imzolanishi bilan izohlanadi. Yangi ishlab chiqilgan Konstitutsiyada davlat va insonlarning atrof-muhitga munosabati yanada takomillashtirilgan moddalarda aks etganini ko'rishimiz mumkin.

Binobarin, 1998 yilda ishlab chiqilgan Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga amal qilinishi natijasida bir qator muammolar hal etilmoqda. Zero, hozirgi avlod ehtiyojiga zarar yetkazmasdan keyingi avlod ehtiyojini inobatga olish ham bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

2011 yil 19 iyulda O'zbekiston Respublikasining Barqaror rivojlanish ta'limi bo'yicha Konsepsiyasi qabul qilinishi ham muhim ahamiyatga egadir. Butun dunyo hozirgi paytda barqaror rivojlanish tamoyillari asosida rivojlanmoqda. BMT Bosh assambleyasining 59-sessiyasida Barqaror taraqqiyot ta'limi o'n yilligi e'lon qilindi (2005-2014 yillar). Bundan tashqari, Mingyillik rivojlanish maqsadlari (2000-2015) ham belgilab berilgan. 2015 yil 25-27 sentyabr kunlari BMTning 200 dan ortiq davlat va hukumat rahbarlari ishtirok etgan Sammitda aynan Barqaror rivojlanish masalasi kun tartibiga qo'yildi va yaqin 15 yilga mo'ljallangan tadbirlar rejasi e'lon qilindi. Ayni chog'da ekologik muammolarni hal etishda tejamkor, ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini olib borish yoki sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish borasidagi sa'y-harakatlar ularni hal etishda yetarli emasligini ko'rsatmoqda. Aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, atrof-muhitga oqilona munosabatda bo'lish, tabiat ne'matlarini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash hissini shakllantirish antropogen ta'sirlarning oldini olishda asosiy omillardandir. Bunda ekologik ta'lim-tarbiyaning ahamiyati nihoyatda yuqori. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-sonli "O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risi"dagi qaroriga muvofiq umumta'lim maktablarida tahsil oluvchi

yoshlarga ekologik ta'lim-tarbiyani hamda madaniyatni shakllantirish maqsadida umumta'lim maktablarida ekologiya fanini o'qitish hamda uni asosiy fan sifatida shakllantirish masalalariga katta e'tibor qaratiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 83-sonli "2030-yilgacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorini amalga oshirish maqsadida umumta'lim maktablarida ilmiy izlanishlar olib borish orqali ekologik ta'lim-tarbiya rivojlantiriladi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi vazifalaridan kelib chiqib shuni alohida ta'kidlash joizki, ekologik ta'limning mohiyatini anglab olgan har bir fuqaro atrof-muhitga bo'lgan e'tiborini kuchaytiradi. Shu o'rinda hozirgi avlodda ekologik ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish va rivojlantirish davr talabi hisoblanishiga e'tiborni qaratish o'rinli bo'ladi.

**MUHOKAMA, TAHLIL VA NATIJA (DISCUSSION, METHOD AND RESULTS).** Ekologik muammolarning yechimini topish va kelgusida ularning oldini olish global miqyosdagi xavfsizlikni ta'minlashning asosiy omili ekanligini tushunib yetgan dunyo hamjamiyati Xelsinki shahrida 35 ta Yevropa davlatlari hamda AQSH va Kanada rahbarlari ishtirokida xalqaro sammitni chaqirishdi. Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik kengashining "Yakunlovchi hujjat"ida ekologik xavfsizlikni ta'minlash barqaror rivojlanishning eng asosiy ko'rsatgichlaridan biri ekanligi e'tirof etildi (1975).

BMT tomonidan "Atrof – muhit va rivojlanish" bo'yicha xalqaro komissiya tuzildi (1983). Dunyo hamjamiyatining yangi "Barqaror rivojlanish konsepsiyasi" birinchi marotaba BMTning Butunjahon Atrof – muhit va rivojlanish bo'yicha komissiyasi tomonidan ishlab chiqildi (1987).

Barqaror rivojlanishni ta'minlash masalalari bo'yicha bir qancha chet el va MDH davlatlari olimlari tomonidan jumladan, D.X.Medouz, D.L.Medouz, Y.Randeres (1994), N.F.Reymers (1990), S.V.Kuznetsov (2019), A.T.Oralova, A.J.Auelbekovalar (2016), B.E.Bolshakov (2011), Sh.Sh.Xamzina, B.K.Jumabekova (2015), M.X.Andre (2017), O.D.Doronina, O.L.Kuznetsov, Yu.A.Raxmanin (2005), K.Vebster, M.Jevlakova, P.Kirillov, N.Koryakina (2007), M.S.Alekseychuk (2008) izlanishlar olib borishgan.

Respublikada mavjud ekologik muammolarni hal etish va barqarorlikka erishish yo'llari bir qator olimlar tomonidan o'rganilib kelingan. Xususan, professor A.Nigmatov va boshqalar (2006), A.Nigmatov, R.Qulmatov, A.Rasulov, Sh.Muhamedov (2015), professor, akademik A.E.Ergashev va bir guruh olimlar (2016), shuningdek, A.Nigmatovning umumiy taxriri ostida (2007),

O‘.E.Xo‘janazarov, M.Mirsovurov, T.Norboyeva (2014), B.M.Ochilova (2013) yillar davomida izlanishlar olib borganlar.

**XULOSA (CONCLUSION).** Mamlakatimizda Barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha keng ko‘lamda nazariy va amaliy ishlar bajarib kelinmoqda. Biroq, ekologiya fanini mustaqil fan sifatida umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim tizimiga kiritilmaganligi yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy faoliyatiga salbiy ta‘sir etadi. Davr esa barcha insoniyatga, jumladan yoshlarga atrof-muhitni asrab-avaylash tabiat va jamiyat barqarorligiga erishishning muhim omili ekanligini taqozo etmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Nigmatov A.N., Kulmatov R.A., Rasulov A.B., Muxamedov Sh.N. Barqaror rivojlanish va uning tizimli indikatorlari. T.: ,Spectrum Media Group‘, 2015. 10 b.
2. Tursunov X.T., Raximova T.U. Ekologiya. T.: ,Chinor ENK‘, 2006. 131 b.
3. Mirzijev Sh.M. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleèsining 72-sessièsida sfzlagan nutqi. 2017 yil 19 sentèbr.
4. Tursunov X.T. Ekologiya va barqaror rivojlanish. T.: ,Mesridarj‘, 2009. 31 b.
5. Farmer A. Handbook of Environmental Protection and Enforcement: Principles and Practice. London: EARTHSCAN. – 2007. – 293 p.